

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

2-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 2 (5) - 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahammadovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafuz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo‘limi psixologik xizmat boshlig‘i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po‘latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo‘tayeov Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O‘zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro‘yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Matkarimova Sadoqat Maqsudovna</i> SHARQSHUNOS A.L.KUNNING XIVA XONLIGI ARXIV HUJJATLARINI SAQLASH VA TADQIQ QILISHDAGI XIZMATLARI	13-19
<i>Matyakubov Xamdam Xamidjanovich</i> MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYALARI VA OROLBO'YI HUDUDIDAGI MADANIYATLAR O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR VA HAMKORLIK	20-24
<i>Raximov Bektosh, Pirmamatov Ramziddin</i> TURKISTONDA JADIDLARNING TA'LIM-TARBIYA TIZIMINI ISLOH QILISH BORASIDAGI HARAKATLARI TARIXIDAN	25-29
<i>Xurramova Saodat Xabibovna</i> ИЗУЧЕНИЕ ИСТОРИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ РУССКИМИ УЧЕНЫМИ В СЕРЕДИНЕ XIX ВЕКА	30-37
<i>To'uchiyeva Dilnoza Ikrom qizi</i> ZOMIN TUMANINING XX ASRNING 80-YILLARIDAGI IJTIMOYIY, IQTISODIY VA MADANIY HAYOTI	38-44
<i>Elboyeva Shaxnoza</i> AYOLLARNING SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA- TADBIRLAR VA BU BORADA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	45-50
<i>Kanimkulov Olimjon, Xikmatova O'g'iloy</i> TUZNING QADIMDAN HOZIRGI KUNGACHA BO'LGAN TARIXI HAQIDA	51-54
<i>Tojiev Alisher Sultannazirovich</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZM VILOYATIDA TURIZM SOHASI UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MASALASI	55-60
<i>Bekbayev Bekjon</i> XX ASRNING BIRINCHI YARMIDA TOSHKENTDAGI QOZOQLAR TARIXIDAN	61-67
<i>Salayev Umrbek Kadambayevich</i> JANUBIY OQCHADARYO HUDUDIDA KECHGAN ETNIK JARAYONLAR TARIXI SAHIFASIGA DOIR BA'ZI CHIZGILAR	68-71
<i>Ro'ziyeva Mashxura Abdimuminovna</i> LO'LILAR IJTIMOYIY HAYOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	72-78
<i>Turdiyeva Mohinur Ilhomjon qizi</i> ICHKI SAVDO QO'QON XONLIGI IQTISODIY TARAQQIYOTINING MUHIM OMILLARIDAN BIRI (1701-1876)	79-84

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Kazakov Olim Sabirovich</i> XIZMATLAR SOHASIDA BOSHQARUVNING YETAKCHILIK KONSEPSIYALARIDAN FOYDALANISH	85-89
---	-------

<i>Исламтудинова Дина Файзрахмановна</i> РАЗВИТИЕ ЭКСПОРТА В АГРОПРОМЫШЛЕННОМ КОМПЛЕКСЕ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	90-98
<i>Alikulov Mehmonali Salahiddin o'g'li</i> QISHLOQ XO'JALIGIGA INVESTITSİYALARNI KENG JALB QILISHDA QISHLOQ XO'JALIGIGA YO'NALTIRILGANLIK INDEKSINING AHAMIYATI	99-106
<i>Omonov Akrom, Ruziyev Baxtiyor</i> O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI AKTIVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	107-113
<i>Tangirov Abduxolik, Nurmanov Sherzod</i> CHO'L-YAYLOVLARI EKOLOGIK HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LARI	114-121
<i>Aliyarov Olim Abdug'aparovich</i> MULKIY SOLIQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI	122-132
<i>Komilov Bakhtiyorjon</i> UNLOCKING THE POTENTIAL OF E-COMMERCE LOGISTICS IN CENTRAL ASIA	133-144
<i>Djumanov Saitmurod Alibekovich</i> MAHSULOT TANNARXIGA KIRITILADIGAN XARAJATLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	145-150
<i>Yariyev Sherzod Shukurjanovich</i> DAVLAT SEKTORIDA AUDITNI RAQAMLASHTIRISH MASALALARI	151-155
<i>Matkarimov Feruz Bekturdiyevich</i> MINTAQADA TO'QIMACHILIK SANOATINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH	156-160
<i>Xaydarova Durdona, To'xtayeva Moxinur</i> DAVLAT BUDJET DAROMADLARI TUSHUMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	161-166
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Yusubov Jaloliddin Kadamovich</i> ABU NASR FOROBIYNING MA'NAVIIY-AXLOQIY IDEALLARI VA ULARNING ZAMONAVIIY IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR RIVOJIDAGI AHAMIYATI	167-175
<i>Nosirxo'jayeva Gulnora Abduqahhorovna</i> FOROBIY ASARLARIDA ADOLAT VA MA'NAVIIY YUKSALISH MUAMMOLARI	176-179
<i>Xoliqov Yunus Ortiqovich</i> BAG'RIKENGLIK VA MILLATLARARO MADANIYAT — JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSI	180-184
<i>Berdaliyeva Sevara</i> ANALYSIS OF VIEWS ON THE ORDERING OF SOCIAL LIFE IN THE WORK OF YUSUF KHOS KHAJIB "KUTADGU BILIG"	185-191
<i>Parpiyev Muhammadjon Tolibovich</i> SHARQ RENNESANSI KELIB CHIQISHINING IJTIMOIIY-FALSAFIY OMILLARI	192-197
<i>Yarashova Mohlaroyim Shuxrat qizi</i> IBN ARABIY "VAHDATUL VUJUD" TA'LIMOTINING FALSAFIY ASOSLARI VA AHAMIYATI	198-202

<i>Ulug'murodov Elyor Saydulloevich</i> ISLOM GNOSEOLOGIYASIDA RATSIONALIZM MUAMMOSI	203-206
<i>Rasulov Azizxon Mukhammadqodirovich</i> AXBOROT MAKONIDAGI TRANSFORMATSIYALASHUVNING DIALEKTIK MAZMUNI	207-213
<i>Xasanov Boburjon Yakimovich</i> EKSTREMISTIK FAOLIYATNING KELIB CHIQISH TARIXI VA TUSHUNCHALARI	214-219
<i>Shokirov Mubin Rustamovich</i> MILLIY O'ZLIKKA SADOQAT – UMRBOQIY QADRIYAT	220-225
<i>Ismoilov Maxammadixon</i> HOZIRGI ZAMON EKOLOGIK MANZARASIDA DESTRUKTIV VA KONSTRUKTIV MUNOSABATLAR DIALEKTIKASI	226-230
<i>Shokirov Murod Rustamovich</i> YANGI O'ZBEKISTONDA QADRIYATLARNING QAYTA TIKLANISHI	231-234
<i>Hamroyev Saidjon Sanoyevich</i> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASIDA IJTIMOY ADOLATNING BARQAROR TARAQQIYOTNI TA'MINLASH ASOSI SIFATIDAGI O'RNI	235-239
<i>Sharopov O'lmasbek Shuhrat o'g'li</i> ZAMONAVIY OILADA BOLA TARBIYASINING ASOSIY OMILLARI (TARBIYA JARAYONIDA OTA-ONANING ROLI)	240-243
<i>Ulug'ov Jasur Nasirdinovich</i> INSON KAMOLOTI: ISLOMIY QADRIYATLAR VA ULARNING IJTIMOIY HAYOTGA TA'SIRI	244-249
<i>Qodiraliyev Abror Tojimurot o'g'li</i> BOSHQARUVCHILIK FAOLIYATI SHARQ MUTAFAKKIRLARI QARASHLARI MISOLIDA	250-253
<i>Ibragimov Kudrat</i> XALQARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MARKAZIY OSIYONING YANGI MUSTAQIL DAVLATLARI	254-260
<i>Oripov Axmadjon Muxammadjonovich</i> VATANPARVARLIK TUSHUNCHASI SHAKLLARINING IJTIMOY-FALSAFIY TALQINI	261-267
<i>Ibragimova Zulayxo Karimbayevna</i> RAHBAR AXLOQIY-ESTETIK KAMOLOTINING SHAKLLANISH JARAYONLARI VA ASOSIY KOMPONENTLARI	268-274
<i>Abdullayev A'zam Abdiyevich</i> YOSHLARDA IJTIMOY-IQTISODIY FAOLLIGI DIALEKTIKASI VA UNING AYRIM XUSUSIYATLARI	275-281
<i>Ochilov Azimjon Tuxtamishovich</i> IJTIMOIY QADRIYATLARNING DEFORMATSIYASI VA KORRUPSIYANING TARQALISHI	282-285

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Raxmanova Sarvinoz Alisherovna</i> SABR VA CHIDAMGA OID FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING SEMANTIK TAHLILI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA)	286-289
<i>Kaxarova Iroda Sidikovna</i> MODAL SO'ZLARDA SHARTLILIK VA TIPOLOGIK OMIL: SEMANTIK TURLANISH	290-296
<i>Babadjanova Nazokat Davronbekovna</i> "YUSUF VA ZULAYHO" DOSTONINING XALQ VARIANTLARI TAHLILI	297-302
<i>Sayidova Shakhriyoda Nasrulloevna</i> RELIGIOUS VIEWS OF THE CHARACTER OF AMIR TEMUR IN MUHAMMAD ALI'S WORK "ULUG' SALTANAT"	303-308
<i>Hatamova Kamola Toshmurod qizi</i> TIJORAT HUYJATLARI TILIDA TERMINOLOGIK LEKSIKA	309-316
<i>Ibodullayeva Dinora Bahramjanovna</i> TERMINOLOGIYANING O'ZBEK VA XORIJIY TILSHUNOSLAR TOMONIDAN O'RGANILISHI	317-321
<i>Otajonova Dildor Baxtiyarovna</i> SUD JARAYONIDA OLIB BORILADIGAN NUTQ FAOLIYATI MAHSULOTLARINING SUD-TIBBIY VA LINGVISTIK EKSPERTIZA TEKSHIRUVI	322-326
<i>Khasanov Mahmud Abdurakhmanovich</i> PHONOLOGICAL AND MORPHOLOGICAL INTERACTIONS AMONG THE LANGUAGES	327-331
<i>Xoshimova Oydina Shuxrat qizi</i> OLAMNING LISONIY MANZARASIDA NOMINATSIYANING O'RNI VA RANGLAR IFODASI	332-338
<i>Babayeva Iroda</i> THE CHARACTERISTICS OF NEWSPAPER HEADLINES IN TERMS OF THEIR STRUCTURE AND MEANING	339-342
<i>Fozilov Odil Yuldashevich</i> USE OF LOGICAL AND FIGURATIVE PERIPHRASES IN MODERN UZBEK LANGUAGE.....	343-346
<i>Raxmonova Dildora Mirzakarimovna</i> JADID DRAMALARIDA ISLOM MADANIYATI VA MILLAT TANAZZULI MASALALARI TALQINI (ABDULLA QODIRIYNING "BAXTSIZ KUYOV" DRAMASI MISOLIDA)	347-351
<i>Mamataliyeva Navbahor Xujamberdiyevna</i> TEZ AYTISHLARNING SINTAKTIK TUZILISH JIHATDAN TAHLILI	352-357
<i>Xamidova Sayyora Nurmatovna</i> KATEGORIYA SIFATIDA SHAKLLANGAN MODALLIK TURLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	358-363
<i>Mengboyev Azizbek Alijon o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MILLIY BAYRAM NOMLARINING CHOG'ISHTIRMA TADQIQI	364-368
<i>Hayitova Shohida Erkin qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI OTA KONSEPTINING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI	369-373

<i>Xolboyeva Iroda Shuxrat qizi</i> SOMATIK KOMPONENTLI PROVERBIAL FRAZEOLOGIZMLARDA EKVIVALENTLIK MASALASI	374-378
<i>Saparniyazov Omirbek Nukusbayevich</i> MARK TVEN VA MUQIMIY ASARLARINI QIYOSIY O'RGANISH: ADABIY UMUMIYLIK VA USLUBIY O'ZIGA XOSLIGI	379-385
12.00.00 – YURIDIK FANLAR	
<i>Muxitdinova Firюза</i> КЛЮЧЕВЫЕ ПРИОРИТЕТЫ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА	386-393
<i>Uzakova Go'zal Sharipovna</i> HUDUDLARNI ZONALASHTIRISHNING HUQUQIY MASALALARI	394-403
<i>Tulaganova Gulchexra, Nurilloev Shavkat</i> INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH	404-414
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MUALLIFLIK SHARTNOMASINING MAZMUNI, TUZILISHI VA UNING ASOSIY SHARTLARI	415-419
<i>Obidov Tolibjon Avezxanovich</i> JINOIY SUD ISHLARINI YURITISH SOHASIDAGI O'ZARO HAMKORLIK MASALALARI	420-425
<i>Tuxtashev Sherzod Azimovich</i> JINOYAT ISHINI TO'XTATIB TURISHNING JABRLANUVCHI VA AYBLANUVCHI UCHUN HUQUQIY OQIBATLARI	426-430
<i>Maxamatov Maxmud Maxamataminovich</i> INSON HUQUQLARINI XALQARO ORGANLARDA HIMOYA QILISH MASALALARI	431-436
<i>Rahmatov Elyor Jumaboyevich</i> BOJXONA MA'MURIYATCHILIGINI ISLOH QILISHDA BOJXONA ORGANLARINING DAVLAT IQTISODIY VA HUQUQIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA ISHTIROKI	437-441
<i>Jumaniyozova Dilfuza Kamolovna</i> IJTIMOIY XAVF GURUHIGA KIRUVCHI YOSHLAR MUAMMOLARI YECHIMI: XORIY TAJRIBASI	442-447
<i>Shermatov Nuriddin</i> RAQAMLI ERADA SUN'IY INTELLEKT (AI) VA ADDITIV (3D PRINTING) TEKNOLOGIYALARI INTELLEKTUAL MULK HUQUQINING OBYEKTI SIFATIDA	448-455
<i>Juraeva Asal</i> EXECUTION OF INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRAL AWARDS	456-461
<i>Sobirov Sauidbek Maxmudovich</i> ДОКТРИНАЛЬНО-ПРАВОВЫЕ И ПРИКЛАДНЫЕ ВОПРОСЫ СУДЕБНОГО ПРИМЕНЕНИЯ И ТОЛКОВАНИЯ ОТДЕЛЬНЫХ НОРМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА О НЕПЛАТЕЖЕСПОСОБНОСТИ	462-467
<i>Nurbayev Muzaffar Erkinovich</i> DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATI INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY DOKTRINASINI TAKOMILLASHTIRISH	468-478

<i>Qudratillayev Jaxongir Zokirjon o'g'li</i> INTERNETDAN FOYDALANISH HUQUQINING KONSTITUTSIYAVIY HUQUQIY ASOSLARI: INTERNET TUSHUNCHASI	479-485
<i>Xabibullayev Azizillo Lutfullo o'g'li</i> SUN'YI INTELLEKT VA INTELLEKTUAL MULK HUQUQI O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR VA HUQUQIY MUAMMOLAR	486-491
<i>To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li</i> MURAKKAB ASHYOLARNING O'ZIGA XOS BELGILARI, ULARNING HUQUQIY VA FALSAFIY MOHIYATI	492-500
<i>Yusupov O'ktambov</i> KORRUPSIYAVIY BITIM HAQIQIY EMASLIGINING FUQAROLIK-HUQUQIY OQIBATLARI	501-509
<i>Murodxonov Muhammadnur</i> XALQARO HUQUQNING TADRIJIY RIVOJLANISHIDA FUNDAMENTAL ASARLARNING O'RNI	510-518
<i>Ёкубов Шухратжон, Эргашева Муниса</i> МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ МЕДИЦИНСКОГО ПРАВА В УЗБЕКИСТАНЕ: БАЛАНС МЕЖДУ МЕЖДУНАРОДНЫМИ СТАНДАРТАМИ И НАЦИОНАЛЬНЫМИ ОСОБЕННОСТЯМИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ	519-523
<i>Qudratillayev Hazratali Zokirjon o'g'li</i> JINOIY FAOLIYATDAN OLINGAN DAROMADLARNI LEGALLASHTIRISHNI TERGOV QILISH SOHASIDA XORIJIY DAVLATLAR VAKOLATLI ORGANLARI BILAN HAMKORLIK MASALALARI	524-530
<i>Umarov Abbosjon Asliddin o'g'li</i> SUG'URTA INSTITUTINING NAZARIY-HUQUQIY TAVSIFI	531-536
<i>Хайдарова Хилола Анваровна</i> ПРАВО НА ИНКЛЮЗИВНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ КАК СУБЪЕКТИВНОЕ ПРАВО ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ	537-542
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Ibraximov Sanjar Urunbayevich</i> AKMEOLOGIK YONDASHUV ASOSIDA SPORTCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARI BILAN ZIDDIYATLI VAZIYATLARDAGI XULQ-ATVOR STRATEGIYALARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIGI	543-547
<i>Karimov Akramjon Zaynobidinovich</i> RAQAMLI TRANSFORMATSIYALAR SHAROITIDA YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGI MADANIYATI VA MEDIAIMMUNITETINI TA'LIM JARAYONLARI ORQALI SHAKLLANTIRISH MASALALARI	548-554
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i> 7-9 YOSHLI O'QUVCHILARNING HARAkat SIFATLARINI HARAkatLI O'YINLAR VOSITALARI ORQALI RIVOJLANTIRISH	555-561
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i> KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINI O'QITISHDA TARMOQ TEKNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	562-569

<i>Xojimirzayeva Shaxnoza Shokir qizi</i> MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH JARAYONI	570-576
<i>Qodirov Azamat Muxriddinovich</i> IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLAR YUQORI SINFLAR O'QUVCHILARINING INGLIZ TILI KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDA MATN O'QISH MALAKASI VA KOMMUNIKATIV YO'NALGAN O'QISH MASHQLARINING AHAMIYATI XUSUSIDA	577-582
<i>Тлеумуратова Абадан Бекбановна</i> ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К РАЗВИТИЮ МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ	583-585
<i>Turdimuratov Dilmurad Yuldashevich</i> TALABALAR TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA JISMONIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR	586-592
<i>Mamaziyayev Oblaberdi</i> OLIV TA'LIMNING NEMIS TILI DARSLARIDA GRAMMATIK TARJIMA METODIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI	593-598
<i>Isoqov Murod Madaminjonovich</i> YOSHLAR JAMOAT TASHKILOTLARIDA IJTIMOIV KAPITALNI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJIV MODELLARI	599-605
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA MATEMATIKANI O'QITISHNING HOZIRGI HOLATI	606-610
<i>Allayeva Hafiza Rustam qizi</i> BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QITISHNING ZAMONAVIV TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI	611-614
<i>Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna</i> AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI	615-621
<i>Xo'jaqulov Ro'zibek Ilhomjon o'g'li</i> BO'LAJAK TASVIRIV SAN'AT O'QITUVCHILARIDA KASBIV KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHDA RANGTASVIR FANINING AHAMIYATI	622-625
<i>Elova Sitara Axmatkulovna</i> QISQA MASOFALARGA YUGURUVCHILARNI TEXNIK TAYYORGARLIGINI SHAKLLANISH DARAJASI	626-629

Received: 25 January 2025
Accepted: 1 February 2025
Published: 10 February 2025

Article / Original Paper

METHODOLOGY OF WORKING ON THE HUMAN PORTRAIT OF STUDENTS IN ACADEMIC DRAWING LESSONS

Rakhmonberdiyeva Aigul Raimzhonovna

Gulistan State Pedagogical Institute,
specialty fine arts, postgraduate student, group 7-24
Email: raxmonberdiyevaoygul@gmail.com

Abstract. Rules for performing a number of complex tasks with an artist's pencil during the drawing process. Theoretical and practical knowledge of drawing a human portrait with an academic pencil drawing provides general information about the genre of portrait painting.

Keywords: academic pencil drawing, study, portrait, reflection, creativity, self-portrait, artist, composition, sketch, decorative, constructive.

AKADEMIK QALAMTASVIR MASHG'ULOTLARIDA TALABALARGA INSON PORTRETINI ISHLASH METODIKASI

Raxmonberdiyeva Oygul Rayimjonovna,

Guliston davlat pedagogika instituti
Tasviriy san'at mutaxassisligi 7-24 guruh magistranti

Annotatsiya. Rasm chizish jarayonida rassom qalam vositasida bir qator murakkab vazifalarni bajarish qonuniyatlari. Akademik qalamtasvirda inson portretini chizishda nazariy va amaliy bilimlari portret janri haqida umumiy ma'lumotlar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: akademik qalamtasvir, etyud, portret, refleksi, ijod, avtoportret, rassom, kompozitsiya, eskiz, dekorativ, konstruktiv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I2Y2025N98>

Kirish. Tasviriy san'atni ham o'ziga xos tur va janrlari mavjud bo'lib, ularga manzara, portret, natyurmort, turmush, tarixiy, animal va boshqa janrlar kiradi. Xususan, tasviriy san'at fanida qalamtasvirda portret chizayotgan paytda, uni rassom ko'proq rasm chizish orqali o'rganadi, bilimni oshiradi, tinimsiz mehnati, harakati tufayli mukammal bu sohani o'rganadi. Tasviriy san'atda qalamtasvir bilan akademik qalamtasvirning o'ziga xos farqi mavjud bo'lib, asosan qalamtasvirda rasm chizayotgan rassom u xoh rangtasvirda, xoh haykaltaroshlikda haykallarni chizib yasashidan qat'iy nazar, ular avval qalamtasvirni mukammal o'rganishlari kerak bo'ladi. Chunki, qalamtasvir tasviriy san'at turlarining asosi bo'lib, avval qalamtasvirda portret kompozitsiyasini chizish kerak bo'ladi. Qalamtasvir tasviriy san'atda qiziqarli va o'ziga xos murakkab bo'lib, asosan ijodkordan chizgan asarini tomoshabinga chuqur ma'no-mazmun, asarning qiziqarli va hayratlanarli bo'lishini xohlaydi. Bunda rassom ijodkorlik qobiliyatlarini, kompozitsiyasini oshirishga, bu sohani o'rganishni boshlagandan keyin oxirigacha o'rganishni va nazariy bilimlar bilan amaliy bilimlarni ham egallashlari kerak bo'ladi. Tasviriy san'atda

rasm chizishda rassomlarga atrof-muhitdagi jismlarni realistik tasvirlash bilan bir qatorda ularning estetik didini ham oshiradi. Rassom tasavvurida rasm chizayotgan paytda avvalo xomaki rasm chizishi kerak bo'ladi. Chunki, idrok qilingan insonning ongida muhrlanib qolgan hodisalarni tezda oq qog'ozga chizish qiyin, shuning uchun ham, tasviriy san'atning qaysi turida bo'lishidan qat'iy nazar, xomaki rasmni chizish lozim. Rassom xayolan xomaki rasm chizish uchun kompozitsiyada tasavvurni, dunyoqarashni, asarning chuqur ma'no-mazmunga ega bo'lishini, mantiqiy jihatdan to'g'riligini, badiiy tasavvurni kengligi, oddiy asarning mohiyatidan go'zal tasvirlay olishni o'rganadi. Buning uchun esa, albatta rassomdan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim bo'ladi. Rassomlarning tasviriy san'atni o'rgatishdagi asosiy vazifalariga jism shaklini masofadan ko'rish bilan tasvirlash qobiliyatini oshirish kerak. Tasviriy san'atda rasm chizayotganda kompozitsiyani joylashtirish kerak. Rassom asar kompozitsiyasini chizishda qog'oz yuzasini to'g'ri va chiroyli joylashtirishi lozim. Portretlarning ko'pchiligi qog'oz yuzasining o'rtasida joylashtiriladi.

Chizayotgan asarni xayolan bo'lsa ham tasavvuridagi kompozitsiyani oq qog'ozga joylashtira olishi kerak. Keyin esa jiddiy ilmiy bilimga tayangan holda kompozitsiyani idrok etishi bilan tasvirlashi lozim.

Qalamtasvirda rasm chizayotganda asosiysi qalamni bosib chizmaslik kerak, qog'ozga qalam bilan juda yengil, nozik va umumiy chiziqalar bilan aks ettirish kerak. Mahoratli rassom bo'lish uchun muntazam ravishda aniq maqsadni ko'zlab, ijod bilan shug'ullansa va albatta kam vaqt sarflab, rasm chizish mahoratini oshirish, mustaqil ravishda tinimsiz mehnat qilsa, shundagina professional rassom bo'la oladi. Tasviriy san'at sohasini o'rgangan har bir inson bu fanni oxirigacha rasm chizishda davom etishi lozim. Chunki, tasviriy san'at qiziqarli bo'lib, pedagog – rassomlarni yanada bilimni oshirishda nazariy bilimlarni ham egallashga undaydi. Asarni chizib tugatgandan keyin undagi shakllarning katta tahlilidan kichik tahliliga o'tadi. Bunda asosan soyaning oddiy vazifalaridan, ya'ni yorug'lik, yarim soya, umumiy soya yordamida shakl hajmini chiqarib, keyin esa refleksda e'tibor qaratiladi. Rassom qalamtasvirda qalamni o'ynata olishi, ya'ni kerak yerda yengil qog'ozga chizishi; nozik va go'zal harakatlarni qidirib, asarni mahorat bilan chizib tugatishi kerak, shundagina tomoshabin asarni ko'rganidan keyin qiziqarli va hayratlanarli, esda qolarli asarning ma'no-mazmunini to'liq yetkazib berganligini anglab yetadi.

Qalamtasvir tasviriy san'atning barcha turlari asosi hisoblanadi. Rassom, hunarmand, haykaltarosh, dizayner hamda san'atga aloqador kasb egalarining barchasi ijodiy asar yaratishda qalamtasvir, qoramalar va eskizlarga asoslanadi. Misol uchun rassom, katta asar kompozitsiyalari ustidagi izlanishlarni avval qalamda qoralama va eskizlarda boshlaydi, san'at asarlarini yaratishda esa, bu bajarilgan qalamchizgilar rassomga asosiy manbalar bo'lib xizmat qiladi [1;25]

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tasviriy san'atda qalamtasvirda rasm chizish jarayonida avval oddiy, sodda geometrik shakllardan tuzilgan natyurmortlar, asta-sekin murakkab natyurmortlarga, keyin esa oddiy manzaralardan qiyin manzaralarga, portretga bir mavzudagi kompozitsiyada asta-sekin bosqichma-bosqich osondan qiyinga qarab rasm chiziladi. Rasm chizayotganda naturani kuzatish, qiyoslash, o'lchash va tajriba bo'lishi kerak. Misol uchun kompozitsiyada rasm chizayotgan bo'lsak, uni avvalo bir mavzudagi kompozitsiyaga oid ma'lumotlarni o'qiymiz. Atrof-muhitni kuzatamiz, chizayotgan natyurmortni yoki portretni eng avvalo shu naturaga eskizlar chizib olib, keyin esa o'sha

chizgan eskizlarni kuzatiladi. Chunki, qalamtasvirda eskiz kompozitsiyasida tasvirning yaxlitligi va birligi, ritm harakat va tinch holatni tasvirlash, simmetriya va asimmetriya, kompozitsiyada muvozanat bo'lishi kerak. Keyin esa chizilgan eskizlarni qiyoslash kerak. Bunda esa kompozitsiyada eskizlarni ko'rib chizib, ulardan qaysi biri kompozitsiyaga mos kelgan bo'lsa, shulardan birini tanlab, chizib olamiz. Chizgan rasmini o'lchash, ya'ni manzara chizayotgan bo'lsak, undagi manzarani o'lcham bilan qog'ozga joylashtirish kerak. Unda orqa fon bilan old fon perspektivaga mos bo'lishi old fondagi daraxtlar kattaroq, orqa fondagi daraxtlar esa kichikroq tasvirlanadi. Keyin esa dalada ishlayotgan dehqonning rasmini chizsa, kompozitsiya tugatiladi. Chizayotgan rasmda kuzatish, qiyoslash, o'lchash va tajriba talab etiladi. Kompozitsiyani chizishda rassomda tajriba bo'lishi kerak. Har bir rassom tasviriy san'at sohasini o'rganayotgan bo'lsa, uning chizgan rasmlari, ijodidagi o'sish yillar davomida rivojlanib boradi va o'zining tajribasi oshadi.

“Portret” fransuzcha “portrait” so'zidan olingan bo'lib, kishilarni chehrasini xuddi o'ziga o'xshatib tasvirlash ma'nosini bildiradi.

Portretda kishilar yakka, ikki yoki bir guruh tasviri ishlanadi. Unda odamlarning boshi, beligacha, yoki bo'yi-basti bilan tasvirlanishi mumkin.

Portret tasviriy san'atning uchala turida shakllanadi. Portret o'z xarakteri jihatdan monumental, miniatyurali, dastgohli, ishqiy, hajviy bo'ladi. Rassomlarning ijodida uning avtoportret xili keng tarqalgan. Avtoportretni rassom oynadagi o'z aksiga qarab yaratadi. [2;9].

Rassom hayoti davomida manzara, natyurmort yoki portret, turmush janridagi asarlariga nazar tashlasa, doimo nimanidir, ajratib alohida yaqqol ko'radi, nimanidir esa yaxshi ilg'amaydi, ana shu ko'rish markaziga bo'ysunadi va kompozitsiya markazi hisoblanadi. Olingan nazariy bilim va amaliy bilim, ko'nikma va malakalarning majmuasini amaliyotga mustaqil va ijodiy qo'llay olish darajasiga kompetensiya deyiladi. Portretni chizishda plastik xarakteristikasi, ruhiy holati, psixologiyasini ochib berish lozim. Asarda tomoshabin e'tibor bilan qaraganda, uning diqqati portretning bosh, yuz qismiga ko'proq qaragan bo'ladi. Portretni tasvirlashda insonning ichki dunyosini, xarakterini, qo'lga qarab, odamning kasbini, hattoki bajaradigan ishini ham bilsa bo'ladi. Asosan xarakterli ishoralarga ham e'tibor berish kerak. Insonning dunyoqarashi, ruhiyati asarda badiiy obrazda ifodalash kerak.

Ma'lumki, tasviriy san'at insonni mehnatga, tafakkur qilishga, ijodga, go'zallikni his qilishga chorlaydi. Kuzatishlar va ilmiy tadqiqotlar, tasviriy san'at yoshlarga faqat ilm-tafakkur, go'zal estetik ideallarni beribgina qolmay, insonning eng muhim jihatlarini ya'ni kuzatish, ko'rish, idrok qilish hamda tafakkur-tasavvurlarini rivojlantiradigan asosiy vosita ekanligini isbotlamoqda. [3;133].

Portret san'atida o'xshashlikni topish muhim hisoblanadi va fon katta ahamiyatga ega bo'lib, fon bilan portret bir-biriga uzviy bog'liq bo'lishi kerak. Portretda milliy kiyimlardan tanlanib rasm chizilsa, yana ham chiroyli chiqadi. Chunki, kiyim insonning kasbi, kelib chiqishi, ichki ruhiy holatini ham ochib beradi. Portretda qalamtasvirda yorqin, xira och bo'lishi lozim. Akademik qalamtasvirda tasvirni shaklini mohirona topa olish, nisbatlarni to'g'ri tanlash, yaxlit va mayda detallarni anatomik va konstruktiv qurilmasini to'g'ir topish kerak bo'ladi.

Ijodiy jarayonda naturadan tasvir ishlash bilan tasavvur va xotiraning o'zaro bog'liqligi bor. Qalamtasvirda chizishda etyudlar ham umumiy qoidalarni o'rganishga yordam beradi. Rassomlar ko'proq xotira, ya'ni atrof-muhitni mayda detallarigacha o'rganish tahlil qilish chizishda davom etish ahamiyatga ega, qalamtasvirda chizishda ham ishlanishiga ko'ra,

akademik va ijodiy qalamtasvirga bo'linadi. Uzoq muddatda tasvirlashga o'rgatish turli shakl va belgilarni o'rganish tasvirlash usullarini o'zlashtirishda bajariladigan tasvirga akademik qalamtasvir deyiladi. Rassomning fikri, hissiyoti va dunyoqarashini obrazli tasvirlovchi tasviriy san'at asariga ijodiy qalamtasvir deyiladi.

Ijodiy fikrlash deganda, ijodkor shaxsiga xos xususiyat, intellektual xislat nazarda tutiladi. Ijodiy fikrlash – bu narsa va hodisalarni shunchaki, hissiy qabullash emas. Ijodiy fikrlash aql kuchini, intellektual salohiyatini ishga solidir. U ma'noda ijodiy fikr yuritish deganda olamni ham o'ziga xos hissiy qabul qilish, ham aql ko'zi bilan ko'rish, ya'ni butun inson borligi bilan anglash nazarda tutiladi [4;52].

Rassomga yosh bolalarning rasmini chizish qiyin bo'ladi. Portretida rasm chizishda hayotiylik, ixchamlik va soddalikka ko'pchilik rassomlar e'tibor beradi.

Professional rassomlar odamlarni oddiy sharoitlarda, sodda va tabiiy holatlarda tasvirlashga harakat qilishadi.

Portret san'atda eng murakkab va ayni paytda eng mazmundor obyektidir. Odam tasvirining ajoyib namunalarini grafikada, jumladan, qalamtasvirida ham mavjud, ijodiy uslublar va san'at yo'nalishlarining turlichaligiga qaramay, mashhur rassomlar o'z ishlarida tasvirlanayotgan odamni chuqur o'rganib tahlil qilganlar.

Bunda grafik yechimlar-g'oyaviy maqsad va rassom oldida turuvchi ijodiy vazifalar bilan aniqlangan [5;73].

Tasviriy san'atda qisqa vaqt davomida bajarilgan tasvirga qoralama deb ataladi. Etyud esa buyumning tasvirini yoki uning qismlari mukammal o'rganish bo'lib, qoralama va etyudlari chuqur o'rgangandan keyin yig'ilgan materiallar ijodiy asar yaratishda foydalanishga mo'ljallanadi va ular esa xomaki nusxa deyiladi.

Rasm chizayotganda tasvirlanayotgan har qanday obyekt (shu o'rinda obyekt so'zi narsa, voqea, inson yoki hayvon shakli, biror-bir jihoz yoki, tabiatning bir ko'rinishi va hokazolar tasvirlanayotgan rassomga nisbatan obyekt hisoblanadi) jumladan inson ko'rinishini tasvirlanayotganimizda avvalo uning har bir tana a'zosi, tashqi ko'rinishi, yuz mimikasi, qo'l oyoqlarining joylashuvi va umuman olganda uning bor ko'rinishini aniq va xatolarsiz, mukammal tasvirlash uchun ta'sirni elementlar va shakllarga ajratgan holda chizishni o'rganish ayni muddaodir.[6;9-10].

Portretida insonning bosh qismini chizishda plastik anatomiya haqida bilimlar bo'lishi kerak, shuning uchun ham rassomlar bilimlarini chizish bilan mustahkamlaydilar va bosh suyagi gavdaning anatomik holatlarini yoddan chizishadi. Bosh suyagi miya qutisi va yuz suyaklaridan iborat bo'ladi va yigirma uchta suyakni birlashtiradi. Portret chizishdan oldin naturani xarakterli holatlarini o'rganib olib, asta sekin rasm chiziladi. Bunda naturani kuzatish, qog'ozda kompozitsiyani to'g'ri joylashtirish, rasmda bosh shaklini umumiy xarakterini egilganlik holatlarini aniqlash, rasm chizishda umumiylikdan o'tish yaxlitlikni ta'minlash va umumiyashtirish kiradi.

Odam boshining konstruktiv qurishda uning shakl tuzilishi murakkab va xilma-xil ekanligiga guvoh bo'lamiz. Har bir insonning bosh shaklining tuzilishi va tashqi ko'rinishi, anatomik plastik jihatiga ko'ra o'ziga xosdir. Lekin, boshning umumiy shakli, uning konstruktiv anatomik asoslari hamma uchun bir xil tuzilish qonuniyatlariga ega. [7;13].

Muhokama. Portretni jonli, aniq va to'liq tugatib o'xshashlik xususiyatlarini topishda katta e'tibor berish kerak bo'ladi. Inson skeleti 206 ta suyaklar tashkil topgan. Undan 85 ta juft

suyakdan va 36 ta toq suyakdan iborat bo'ladi. Suyaklar naysimon, g'ovak, yassi va g'alvirsimon shaklda bo'ladi. yelka, bilak, son va boldir naysimon suyaklarga kiradi. Qovurg'a, to'sh, o'mrov, umurtqa, qo'l va oyoqning kaft va kaft osti suyaklari g'ovak suyaklarga kiradi. Bosh suyagining ponasimon va g'alvirsimon suyaklari, yuqori jag', peshona suyaklari g'alvirsimon suyaklarga kiradi. Portretida inson plastik anatomiyasini chizishda qo'l va oyoqlarni mukammal rasmini chizish muhim hisoblanadi. Rasm chizayotganda qo'l va oyoqlarni rasmini chizish rassomga qiyinchiliklar tug'diradi. Shuning uchun ham ko'proq chizish va harakat qilib, bilimlarni o'rganish talab qiladi. Rassomlar plastik anatomiyasini nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy bilimlarga ham ega bo'lishi kerak.

Tasviriy san'atda kompozitsion fikrlash maxsus ta'sir qilish ijodiy va axloqiy "tasavvur"da namoyon bo'ladi. Bunda shakllar umumlashtirilgan dinamik va statik jihatdan – bu dunyoga munosabatning yaratilishidir. Tasviriy, dekorativ va konstruktiv faoliyat bo'yicha mashg'ulotlar o'quvchilarning qobiliyatlarini va fikrlash tizimini (ko'z, miya, qo'l) rivojlantirishdir. Tasviriy san'at shunchaki chizish emas, bu doimo mehnat, bu ko'rish qobiliyatini rivojlantirish, barmoqlar sezgirligidir. Bu ajralmas shakllanishi bilan bog'liq fikrlashdir. [8;71-72]

Rassomlar kompozitsiyada hayratlanarli, hayajonga soladigan voqea hodisalarni chizishga harakat qilishadi. Lekin kundalik hayotda barcha narsalarni darrov rasmini chizishning iloji yo'q. Chunki, to'xtovsiz harakatdagi naturani o'zidan tezda chizish qiyin, shuning uchun ham har bir rassomning xotirasi va tasavvuri kuchli bo'lsa, u bemalol esda saqlab qolib, asarni chizishni boshlaydi. Biroq, aytib o'tishimiz joizki, oq qog'ozga chizishdan avval, kompozitsiyani eskizini chizib olish kerak. Keyin esa rasmni qalamtasvirda tasavvur olamini kengaytirish, ijodiy qobiliyatini o'stirish orqali rassomning mahoratini chizish orqali rivojlantirish mumkin.

Portret qalamtasvirini ishlashda plastik anatomiya qonuniyatlariga e'tibor alohida o'rin tutadi.

Bunda bosh muskullari asosan yuz sohasida joylagan bo'lib, ularni bir-biridan muskullar keskin ajralib turadigan ikkita gruppaga bo'lish mumkin: 1) pastki jag'ni harakatlantiradigan, ya'ni oson chaynash aktida ishtirok etadigan muskullar-bularni chaynov muskullari deb atasa bo'ladi va 2) ruhiy kechinmalar yoki boshqa biror bir taassurotlar natijasida yuz ifodasini o'zgartiradigan muskullar – bularni mimik muskullari deb atash mumkin. [9;32].

Asosan portret chizishda plastik anatomiyaga rioya qilgan holatda kompozitsiyani chizish va uni mukammal o'rganish lozim. Albatta plastik anatomiya o'ziga xos murakkab va qiyinchiliklarga sabab bo'lishi mumkin. Bunda inson muskullarini ham nazariy jihatdan jihatdan o'rganib, ham chizish lozim bo'ladi. Xususan, inson skeleti harakat apparatining passiv qismi bo'lsa, muskullar aktiv qismi bo'lib, 400 muskuldan tashkil topadi. Portret chizayotgan paytda plastik anatomiyaga oid bilimlar kerak bo'ladi. Inson muskullariga bosh muskullari, bo'yin muskullari, ko'krak va qorin muskullari, orqa va bel muskullari, chanoq va pastki bitishma muskullari, son muskullari, tizza bo'g'imi muskullari, boldir muskullari, oyoq panja muskullari, yelka kamari muskullari, qo'l muskullari va qo'l panjasi muskullari kiradi. Rassom portret chizayotganda mimika muskullarini mukammal o'rganishi kerak. Chunki, portretida mimika muskullarini chizish orqali insonning ichki hayoti, o'y-fikrlarini ham bilish mumkin. Misol uchun jilmayish, kulish, xafa bo'lish, hayratlanish, diqqat, asabiylashish, ishonchsizlik

mimikasi va boshqalar kiradi. Portretda mimika muskullarini o'rganish qiyin bo'lib, bunda psixologiyaga oid bilimlarni ham o'rganish kerak.

Portret janridagi bir asarda ko'pincha bir necha janrlar qo'shilishi mumkin. Portretda tasvirlanuvchi sof holda (zaminsiz, ya'ni atrof-muhitni aks ettirmasdan), tinch holatda yoki biror faoliyati bilan ma'lum muhitda ishlashi mumkin. Shu tufayli shartli ravishda portret – portret va portret-kartina (janrli portret)ga ajratiladi.

Portretning keng tarqalgan turlaridan biri-avtoportret. Tasvirlanayotgan kishilar soniga ko'ra, yakka, qo'shaloq va guruh portretlarga bo'linadi. [10;43].

Natijalar. Portretni chizishda havaskor rassomlar natura o'xshayapti deb chizaverib, rasmni chizayotgan paytda ketma-ketlikka rioya qilmasdan, murakkab kompozitsiyani chizadilar, lekin ular rasmni chizishga qiynalishadi. Shuning uchun rasmni chizishda asta-sekin qog'ozga qalamtasvirda chizishni mukammal o'rganish lozim, naturani kuzatish va tahlil qilib, o'lchamlararo nisbatni topib chizish lozim. Boshning umumiy ko'rinishini chizib, peshona, yonoqlar, ko'z kosalari, ko'zning sharsimon shakllari, burunning prizmatik shaklini o'lchamlarini bilinar shaklda chizib olinadi. Rassomlarning ko'pchiligi portretlarni qog'oz yuzasining o'rtasida rasmni chizishadi. Naturani chizayotgan paytda rassom chizish uchun qulay nuqtani tanlab olish, duch kelgan joyda o'tirib rasm chizish kerak emas, chunki naturani eng ifodali ko'rinadigan nuqtani tanlaganda kompozitsiya juda yaxshi chiqib, qalamtasvirda yengil chiziqlar bilan chizi orqali asarni muvaffaqiyatli tugatiladi.

Umumiylikdan xususiyatlikka qarab borish prinsipiga rioya qilgan holda portret tasvirini chizish zarur. Rasm chizish jarayonida talaba ikki xususiyatni esdan chiqarmasligi lozim. Birinchisi umumiy ko'rinishdan xususiyatlikka, ya'ni detalga o'tish prinsipidir. Bunda chizilayotgan naturani eng avvalo detallarsiz, umumiy aksi to'liq tasvirlanadi, so'ng mayda detal elementlarini ishlashga o'tiladi. Ikkinchi jarayon bu xususiyatlikdan, umumiylikka qaytishdir. Umumiylikdan keyin detallarni ishlashga o'tiladi va har bir bo'lak alohida elementlari ishlanadi va yaxlitlanadi. [11;74].

Rassomlar portret chizayotganda naturani yorug'lik ikkiga bo'lib, yorug'lik tushmayotgan tomoni va yorug'lik kam tushayotgan, naturaning yoritilgan tomoniga ajraladi.

Xulosa. Havaskor rassomlar portret chizishda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, boshning ko'p shakllari parallel bo'lib, parallel shakllarni alohida chizib bo'lmaydi. Inson hayoti davomida xohlaydimi yoki yo'qmi atrofqa qaraydi, lekin hamma narsani ko'rmaydi. Buning asosiy sababi, inson atrof-muhitga to'xtamasdan qaraydi va ular barcha narsani ko'ra olmaydi.

Havaskor rassomlar atrofqa 15 daqiqa diqqat bilan tikilib qarasa, u atrof-muhitdagi hodisalarni ko'radi va bu rassomning xotirasida saqlanib qolib, kompozitsiyada rasm chizishda tasavvur va xotira rivojlanib boradi.

Portret janrida dastlabki portretlar qadimgi Yunonistonda miloddan avval VII-V asrlarda yaratilgan. U O'rta asrlar Sharq minatyurachilari va Yevropa rangtasvirchilari va haykaltaroshlari ijodida keng rivoj topdi. Bu janrda Kamoliddin Behzod, Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, XIX-asrlarda O.Renuar, P.Pikasso, I.Repin, XX-asr o'zbek rassomlaridan A.Abdullayev, Ch.Axmudov, V.Kaydalov kabilar samarali mehnat qildilar. [12;109].

Tasviriy san'atda kompozitsiya portret chizishda aniq, to'liq o'xshashlik va jonli tarzda asarni chizib tugatishda chiziladigan detallarga ahamiyat berish kerak, portret chizishni o'rganishda havaskor rassomlar ijodiy ko'nikmalarini shakllantirish, badiiy-estetik tafakkurni shakllantirish muhim hisoblanadi. Kompozitsiyada inson portretini chizishda oddiy predmetlar

rasmini chizish uslubida bo‘lib, umumiy balandlik va enini belgilash bilan rasm chiziladi. Insonning portretini chizishda muvozanatga alohida e‘tibor berish kerak. Portretni xomaki tasvirlaganda, mayda qismlari quloq, og‘iz, ko‘z va burun kabilarni aniq rasmini chizmasdan umumiy tarzda chizish kerak bo‘ladi.

Ijodiy jarayonlarda, badiiy asarlar yaratishda iroda katta ahamiyatga ega. Ijodiy jarayonning barcha bosqichlari rassomdan irodali vazminlikni talab qiladi.

Rassomning yuksak mahoratga erishishi, ijod natijalari, avvalambor, bu faoliyatning barchasi juda ko‘p sinov va xatolar orqali ulkan, mashaqqatli va maqsadli mehnat ekanligi bilan bog‘liq. [13;60].

Portret kompozitsiyasini chizishda ritm, harakat va tinch holatni tasvirlab ham qo‘llaniladi. Kompozitsiya chizishda ritm har doim harakatni aniqlatib, ketma-ketlikda element qismlarining takrorlanishi bo‘ladi.

Kompozitsiyani chizishda statik holatda (mustahkam), o‘ng va chap tomonlari tenglashtirilgan bo‘lsa, simmetrik kompozitsiya deyiladi. Chizilgan rasmda asarning syujeti bilan ma‘nosida bog‘liq bo‘lib turlicha bo‘lsa, o‘ng va chap tomonlari tenglashtirilmagan holda chizilsa, asimmetrik kompozitsiya deyiladi. Portret kompozitsiyasining asosiy ma‘nosi, asarning aniq va ishonchli tarzda yetkazib berish bo‘lib, eng muhimi badiiy obrazni yaratish hisoblanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. X.X.Muratov. Qalamtasvir Toshkent. Ijod-Print 2020. [1;25].
2. Raxim Xasanov. Tasviriy san‘at asoslari. Toshkent 2008. [2;9].
3. B.N.Oripov. Tasviriy san‘at va uni o‘qitish metodikasi. “Ilm ziyo”. Toshkent- 2012 [3;133].
4. Nuriddin Saidkulov. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi. Guliston-2023 [4;52].
5. S.F.Abdullayev, A.T.Maxmudov “Qalamtasvir asoslari” Toshkent – 2013 [5;73].
6. B.B Nusharov, B.A.Usmanov chizmatasvir “Ziyo nashr-matbaa” Gulshan-2023. [6;9].
7. B.A.Usmanov Chizmatasvir “Ziyo nashr-matbaa” Gulshan-2023 [7;13].
8. Berikbayev Alisher Alikulovich “Tasviriy san‘atning nazariy va uslubiy asoslari” “Ilm Ziyo zakovat” Toshkent – 2023 [8;71-72].
9. Babadjanov Axmadjan Qalamtasvir “Ilm Ziyo Zakovat” Toshkent-2023 [9;32].
10. N.P.Jumaboyev Rangtasvir “Ilm Ziyo Zakovt” Toshkent-2023 [10;43].
11. Sh.A.Yusupova Tasviriy san‘at to‘garaklarining uslubiy asoslari. “Ilm Ziyo Zakovat” Toshkent-2023 [11;74-75].
12. R.Z. Xayrov Dekorativ Rangtasvir Guliston-2022. [12;109].
13. I.X.Mirzakulov Kompozitsiya “Ilm Ziyo Zakovat” Toshkent-2023 [13;60].
14. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. "Interpretation of the Problem of Educational use of Aesthetic Views of Eastern Thinkers in Pedagogical Research." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3.1 (2024): 9-9.
15. Odiljanovna, Yakubova Nafisa. "Teaching Students to Think Creatively (in Drawing Classes)." Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3.1 (2024): 7-7.
16. Berikbaev, Alisher Alikulovich, et al. "Development of competence skills of art education students." International Journal of Psychosocial Rehabilitation 24.4 (2020): 6984-6988.
17. Alimjanovna, Y. S. (2024). The Important Significance of Introducing Students to Artists' Creations in Circle Classes (Ural Tansikbaev). Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 3(1), 9-9.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 2 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas’uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog‘lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).